


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

“Tasdiqlaymiz”
Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti rektori A. Sattarov
2024-yil
Ro'yxatga olindi №
2024-yil avgust



**YUNOGOGIKA FANINING
O'QUV DASTURI**

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110100 - Pedagogika-psixologiya

Termiz - 2024

Fan/modul kodi Yuno208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4-4	
Fan/mavzu turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Yunogogika	60-60	60-60	120-120

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – bakalavr talabalarga yoshlarni ijtimoiy rivojlanishini, ularni ijtimoiy pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashni, yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari, usullarini ishlab chiqishga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni yunogogika fanining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; yoshlar tarbiya strategiyalarining ilmiy yondoshuvlari asosida samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; ijtimoiy pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; yoshlarni qo'llab quvvatlashda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishga doir ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Fanning nazariy qismi (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

I-MODUL. Yunogogika fanining nazariy asoslari.

1-Mavzu: Yunogogika – pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida.

Yunogogika fanining obykti va predmeti. Fanning funksiyalari. Yunogogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Fanning ilmiy-tadqiqot metodlari.

2-mavzu. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.

Tarixiy manbaalarda yoshlar masalalarining yoritilishi. G'arb uyg'onish davrida yoshlar muammolarining o'rganilishi. Sharq uyg'onish davr mutafakkirlari asarlarida yunogogika fanining rivojlanishi. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.

3-mavzu. Shaxs va individuallik.

Shaxsni shakllanish jarayonlari. Individuallik tushunchasi. Shaxs ijtimoiylashuv mezonlari.

4-mavzu. Ijtimoiylashuv va yoshlar ta'limi. Yoshlar tarbiyasi.

Ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi faktorlar. Shaxsga ta'lim berish mazmuni. Yoshlar tarbiyasi. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Tarbiya strategiyalarining ilmiy yondashuvlari.

5-mavzu. Tarbiya modellari.

Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. Tarbiya tizimini rivojlantirish omillari.

6-mavzu. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tasdiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari.

Ilmiy pedagogik metodlarning tasnifi. Pedagogik tadqiqotlar klassifikatsiyasi.

Nazariy va empirik metodlar tasnifi. Pedagogik eksperiment mazmuni.

Testlashtirish metodi va testlarga qo'yiladigan asosiy talablar. Pedagogik

konselium yoki ekspertlar tafsifi metodi hamda undan foydalanish yo'llari.

7-mavzu. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy metodlar va ularning qo'llanishi.

Pedagogik korreksiyada. Ta'limning ma'lumot beruvchi metodlaridan foydalanish

yo'llari. Pedagogik korreksiyada interfaol metodlarni qo'llash. Maktab

o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlarning turlari.

8-mavzu. Yoshlar madaniyati.

Yoshlar madaniyati mustaqil ijtimoiy makon bilan namoyon bo'lib, unda oilada, maktabda vakolatlaridan maxrum bo'lgan, kattalar tomonidan to'liq nazorat qilinadigan yoshlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy sanoatlashgan jamiyatda oila o'zining an'anaviy ta'lim va professional funksiyalarini yo'qotishni boshlaydi.

9-mavzu. Zamonaviy talabalikning zamonaviy professional va bo'sh vaqt orientatsiyasi

Ijtimoiy-demografik guruh sifatida ular aniq soni, jinsiy-yoshga oid tuzilishi, hududiy taqsimoti, aniq ijtimoiy holati, roli, statusi bilan ta'riflanadi, sotsializatsiyaning alohida bosqichi bilan farq qiladi.

10-mavzu. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni, tuzulmasi va funksiyalari.

Ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni. Ijtimoiy pedagogik faoliyatda yoshlar tarbiyasi masalalari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat tuzulmasi va funksiyalari.

11-mavzu. Ijtimoiy pedagogik trening to'g'risida tushuncha.

Ijtimoiy pedagogik treningni maqsadi, vazifalari hamda tashkil etish texnologiyasi.

12-mavzu. Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining ijtimoiy-pedagogik faoliyati tamoyillari.

Yoshlar bilan ishlash tashkilotchisining umumiy tushunchalar. Yoshlar tashkilotchisining shaxs shakllanishiga ta'siri. Yoshlar tashkilotchisining faoliyatini tashkil etish tamoyillari.

13-mavzu. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish.

Ijtimoiy kompetentlik tushunchasini mazmuni. Yoshlarni ijtimoiy kompetentligini shakllantirish yo'nalishlari.

14-mavzu. Ijtimoiy kompetentligini shakllantirish funksiyalari.

Yoshlarni ijtimoiy kompetentligini shakllantirish jarayon vazifalari. Yoshlarni ijtimoiy kompetentligini shakllantirish bosqichlari.

15-mavzu. Yoshlarni ijtimoiy o'z-o'zini anglashga tayyorlikni shakllantirish.

Ijtimoiy o'z-o'zini anglashga pedagogik yondashuv.

Yoshlar ijtimoiy o'z-o'zini anglashning asosiy yo'nalishlari va funksiyalar.
Yoshlar ijtimoiy o'z-o'zini anglashning shart-sharoitlari. Yoshlar ijtimoiy o'z-o'zini anglash darajalari bosqichlari.

II-MODUL. Yunogogika fanining amaliy asoslari.

16-mavzu. Yoshlarni ijtimoiy pedagogik qo'llab quvvatlash tizimi.

Yoshlarni pedagogik qo'llab-quvvatlash – pedagogik muammo sifatida. Yoshlar hayotidagi voqea hodisalarni tasniflash. Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash funksiyalari. Ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayonini algoritmik ketma-ketligi.

17-mavzu: Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika va loyihaviy faoliyat.

Ijtimoiy-pedagogik innovatika mazmuni va mohiyati. Yoshlarni loyihalash faoliyatini tashkil etish. Loyihaviy faoliyatni tashkil etish. Loyihaviy faoliyatni tashkil etish tamoyillari. Yoshlarni loyihalash faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

18-mavzu. Yoshlarga oid davlat siyosati.

Bunday vaziyatda muayyan ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilishning turli darajadagi dolzarbligini hisobga olish kerak.

19-mavzu. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish.

Yoshlar submadaniyati xarakteristikasi. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning huquqiy asoslari. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimi. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimi. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari.

20-mavzu: Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish.

Ta'lim muassasalarida yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishning o'ziga xosliklari. Yuqori sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish yo'nalishlari.

21-mavzu. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini ijtimoiy pedagogik qo'llab quvvatlash.

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash pedagogik muammo sifatida. Kasb-hunar maktabi o'quvchilari psixologiyasi. O'quvchilar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni.

22-mavzu. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan yoshlar
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab quvvatlashda ishlab chiqarish va tadbirkorlikka tayyorlashning o'ziga xosliklari.

23-mavzu. Harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Ustoz-shogird tizimini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy-qo'llab quvvatlash mazmuni.

24-mavzu. O'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi.

Deviant xulq-atvor tushunchasi. Yoshlar deviant xulq-atvorining kelib chiqish sabablari. Profilaktika jarayonlarining mazmuni. Yoshlar deviant xulq-atvorining

oldini olishning tarkibiy qismlari.

25-mavzu: Zamonaviy jamiyatda yoshlarning yangi qatlamlari
Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatning boshqa qatlamlari ijtimoiy faolligiday xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo yoshlarning jamiyatda tutgan mavqeining tuliq shakllanmaganligi bilan bogliq.

26-mavzu: Yosh oilalarni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash.
Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - keksa fuqarolarga ijtimoiy-pedagogik xizmatlar ko'rsatishda namoyon bo'ladigan, ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning xatti-harakatlari va shaxsiyatini rivojlantirishda og'ishlarning oldini olish

27-mavzu: Yosh oilalardagi mavjud muammolar.

Yosh oilaning vujudga kelishi va uning vazifalari. Yosh oilaning shakllanish bosqichlari. Konfliktli oilaning vujudga kelish sabablari va unga ijtimoiy-pedagogik yordam. Konfliktlarni bartaraf etish yo'llari.

28-mavzu: Yoshlarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish.

Yoshlarning o'z-o'zini boshqarish organlarining asosiy xarakteristikasi. Yoshlar o'z-o'zini boshqarish – mustaqil hayotga tayyorlashning turi ekanligi. Yoshlar o'z-o'zini boshqarish tizimini takomillashtirish tamoyillari. Yoshlar o'z-o'zini boshqarish tizimini takomillashtirish modeli.

29-mavzu: Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Yoshlarni liderlik faoliyatiga tayyorlash pedagogik-psixologik muammo sifatida. Liderlik fenomeni. Yoshlarni liderlikka tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayoni tuzilishi. Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash prinsiplari.

30-mavzu: Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlar: faoliyatning pedagogik komponenti.

Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarning tarkibiy qismlari. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat tajribasida ijtimoiy xizmatlarning mazmuni. Yoshlar uchun ijtimoiy xizmatlarida ijtimoiy-pedagogik faoliyat komponentlari.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yunogogika - pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida.
2. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari.
3. Shaxs va individuallik.
4. Yoshlarning ijtimoiylashuvi va ta'limi. Yoshlar tarbiyasi.
5. Tarbiya modellari.
6. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishning ilmiy- pedagogik metodlari.
7. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy metodlar va ularning qo'llanishi.
8. Yoshlar madaniyati
9. Zaonaviy talabalikning zamonaviy professional va bo'sh vaqt orientatsiyasi

10. Yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ishlar tizimi tuzilmasi, funksiyalari
11. Ijtimoiy pedagogik trening to'g'risida tushuncha
12. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha yetakchining ijtimoiy pedagogik ishlar tashkil etish tamoyillari
13. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish
14. Ijtimoiy kompetentligini shakllantirish funksiyalar
15. Yoshlarni ijtimoiy o'z-o'zini anglashga tayyorlikni shakllantirish
16. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish
17. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish
18. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash
19. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan hamda Xarbiy tizimda o'tayotgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash
20. Yosh oilalarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash
21. Yoshlarning o'z-o'zini boshkarish organlari faoliyatini rivojlantirish
22. Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash
23. Yoshlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish: faoliyatning pedagogik komponenti
24. O'quvchi-yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi
25. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning yangi qatlamlari
26. Yoshlarni kasb-xunarga maksadli yo'naltirishga doir ijtimoiy-pedagogik ish
27. Yozgi dam olish oromgoxlarida pedagogik faoliyatni tashkil etish
28. Yoshlar bilan tashkil etiladigan tadbirlarni tashkil etish metodikasi
29. Volontyorlik va volontyor guruhlar bilan tashkil etiladigan faoliyat
30. Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularga ko'maklashish
31. Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi
32. Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika loyixaviy faoliyat

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustakil ishlar quyidagi turdagi amalgaga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse - dolzarb mavzu buyicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- dokladlar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va guruxiy ukuv loyixasi;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va x.k.) yaratish;
- multimediali takdimotlar yaratish;

- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashkari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) ning xususiyatidan kelib chikkan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Yangi taraqqiyot davrida yoshlarni ijtimoiy rivojlantirish.
2. O'zbekistonda yoshlarga oid siyosatning huquqiy asoslari.
3. Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari.
4. Yoshlarni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatining ahamiyati.
5. Yoshlarga oid davlat siyosatining izchil va samarali tashkil etish.
6. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari.
7. Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik ko'llab-quvvatlash tizimi.
8. Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika va loyixaviy faoliyat.
9. Yoshlar o'rtasidagi deviant xulq-atvor profilaktikasi.
10. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish.
11. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik ish.
12. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
13. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan hamda xarbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
14. Yosh oilalarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
15. Yeshlarning Uz-uzini boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish.
16. Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
17. Yoshlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish: faoliyatning pedagogik komponenti.
18. Yoshlarni kasb-hunarga maqsadli yo'naltirishga doir ijtimoiy-pedagogik ish.
19. Yozgi dam olish oromgohlarida pedagogik faoliyatni tashkil etish.
20. Yoshlar bilan tashkil etiladigan tadbirlarni tashkil etish metodikasi.
21. Volontyorlik va volontyor guruxlar bilan tashkil etiladigan faoliyat.
22. Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ularga ko'maklashish.

VI. Kurs ishini tayyorlash buyicha ko'rsatma va tavsiyalar.

«Yunogogika» fani bo'yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda tanlagan mavzusi bo'yicha adabiyotlarini, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy makolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlari faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar xosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo'llay olishdan iborat.

Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish ya'ni, umumumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonga bogliq holda ishlab chiqiladi va xar bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi.

Shuning uchun ham o'qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirish uchun

o'quv rejasida ajratilgan 4 soat ichida kurs ishining mohiyati, tadqiqot olib borish usullari va adabiyotlar bilan ishlash, ya'ni ularda masalaning qo'yilishi, nima ish qilinganligi, ularning mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

- Talabada tanlangan mavzu buyicha o'z nazariy bilimini chuqurlashtirishi;
- psixologik-pedagogik, metodik va o'quv materiallarini tahlil qilish malakasi ni o'zlashtirishi;
- pedagogik eksperimentni rejalashtirishi, tayyorlashi va o'tkazishi; eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi; -nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egalashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarning ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo'lg'usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o'quv yilining boshida shu o'quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o'zini qiziqtirgan mavzuni tanlab olgandan so'ng, bu mavzu bo'yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun kafedraga taqdim etadi. Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so'ng kafedra unga ilmiy raxbar tayinlaydi. Talaba kurs ishini o'z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajaradi.

Kurs ishi mavzulari

1. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishning ilmiy-pedagogik asoslari.
2. Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi.
3. Yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik innovatika.
4. Yoshlar o'rtasidagi deviant xulq-atvor profilaktikasi.
5. Uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
6. Yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.
7. Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
8. Ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan hamda harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash.
9. Yosh oilalarni ijtimoiy-pedagogik ko'llab-quvvatlash mexanizmlari.
10. Yoshlarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini rivojlantirish.
11. Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.
12. Yoshlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish: pedagogik komponentlari.
13. Yangi taraqqiyot davrida yoshlarni ijtimoiy rivojlantirish
14. O'zbekistonda yoshlarga oid siyosatning huquqiy asoslari.

15. Yoshlar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq etishning ilmiy-pedagogik metodlari.

16. Yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat: mazmuni, tuzilmasi, funktsiyalari.

17. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha yetakchining ijtimoiy-pedagogik ishlash faoliyatini tashkil etish tamoyillari.

18. Yoshlarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish.

19. Yoshlarni ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishga tayyorlikni shakllantirish.

20. Yoshlar bilan tashkil etiladigan tadbirlarni tashkil etish metodikasi

VII. Ta'lim natijalari / (shakllanadigan kompetentsiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- Yunogogikaning mohiyati, mazmuni, yoshlar tarbiyasi va ularni rivojlanishidagi o'rni, ijtimoiy-pedagogik faoliyat shakl va metodlari, ijtimoiy pedagogik faoliyat tashkil etishda o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish *to'grisida Tasavvurga ega bo'lish; (bilim),*

- Yunogogika fanining tamoyillari, tuzilmasi, metodlari va texnologiyalarini amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishi va ulardan foydalana olish ; (ko'nikma).

- Yoshlar tarbiyasini tashkil etish hamda olingan natijalarni to'g'ri tahlil etish, umumlashtirish va xulosa qilish orqali ijtimoiy- pedagogik jarayonni boshqarishga oid ratsional qaror qabul qilish malakalariga ega bo'lishi lozim. (malaka).

VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar:

- seminarlar(mantikiy fikrlash, tezkor savol-javoblar).

- guruhlarda ishlash;

- taqdimotlar qilish;

- individual loyihalar;

- jamoa bo'lib ishlash va ximoya kilish uchun loyixalar.

IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

X. Asosiy adabiyotlar

1. Rojkov M.I. Pedagogicheskoe obespechenie raboti s molodyojyu Yunogogika. - M.:Gumanitar. Izd.sentr VLADOS. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov, 2008.-246s.

2. Podlasiy I.P. Pedagogika: v 3-x kn. Moskva: VLADOS, 2013

3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik I. SANO. STANDART. 2017.

4. Ishmuxammedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar O'quv kull. - T.:Fan va texnologiya, 2010.

XI. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining - kundalik qondasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

2. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /SH.M.Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.

3. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /SH.M.Mirziyoev. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 488 b.

4. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston. strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 6.19. Niyozov G., Axmedova M.E. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. T.: Noshir, 2011.

5. Umarova M.X. Teoriya I istoriya pedagogiki. (Uchebnoe posobiya). - T. Chulpan, 2018.

6. Slastenin V.A., Isaev I. F., Shiyanov YE. N. Obshaya pedagogika (Uchebnoe posobiya). M., 2003.

Axborot manbaalari

10.<http://www.edu.uz> O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

11.<http://www.uzedu.uz> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

12.<http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.

13.www.pedagog.uz

14.www.apkpro.ru/content/view 15.www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten

16.www.relarm.ru/conf/conf2007 17.<http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/>

18.<http://www.allmath.ru/>

1. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2024 yil "30" *avgust* dagi qarori bilan tasdiqlangan
2. **Fan/modul ushun ma'sul va dastur muallifi:**
Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi PhD dotsent.
3. **Taqrizchilar:**
Samiyev A.S. TerDu PhD, dotsent.
Avliyaqulov T.X - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti PhD dotsent.